Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 201- guruh talabasi Ismoilova Sitorabonuning O'zbek adabiyoti tarixi fanidan

MUSTAQIL ISH

TOSHKENT-2012

TARJI'BAND

Meni may bas oshuftahol ayladi,

Bu vodiyda Majnunmisol ayladi.

Boshimni kup atrofida mayfurush

Uzum jismidek poymol ayladi.

Chog'ir kasrati may batidek manga

Xirad bulbulin gungu lol ayladi.

Sabukashligim ayni idbordin

Qadimni yuk ostida dol ayladi.

Mayi la'l oltun qadah shaklidek

Yuzum sorig', ashkimni ol ayladi.

Qadimdin falak ofiyat xirqasin

Chekib, rahni jomi zilol ayladi.

Sipehr atlasi dayr ko'yi aro

Mening kisvatim eski shol ayladi.

May istarda idboru oshuftaliq

Manga jom sing'on safol ayladi.

Xarobot piri chu bir jom uchun

Meni mundoq oshuftahol ayladi.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,

May istarga ilgimda sing'on safol.

*Alisher Navoiy buyuk sa'natkor , tabiiyki, birgina g'azalchilik doirasida qolishi mumkin emas edi. U o'z davria bo'lgan barcha mavjud she'riy shakllarda samarali ijod etdi. Navoiy xilma-xil ruboiy janrlaridan g'oyat unumli foydalangan ijodkor edi. Ularda shoirni o'ylantirgan fikr va tuyg'ular janr imkoniyatlari doirasida o'z ifodasini topdi. Shoirning " **XAROBOT ARO KIRDIM OSHUFTAHOL ...** " nomli tarji'bandi tahlili bu fikrlarni tasdiqlaydi.*

Tarji'band – arabchadan olingan atama bo'lib , " tarji " va " band "

so'zlaridan tashkil topgan . " Tarji " so'zi qayt arish, takrorlash ma'nosini anglatadi. " band " so'zi kishan , qamoq, to'xtatish, bog'lash ma'nolarida kelib , she'riy janrlardagi misralarning miqdoriy tartibini bildiradi. Adabiy atama sifatida esa , bir necha banddan iborat bo'lib , singari qofiyalanadigan , birinchi bandning maqta'si qolgan bandlarning so'ngida ham takrorlanadigan she'r turini anglatadi. Tarji'bandlar , ko'pincha falsafiy mavzuda yozilgan. U mumtoz she'riyatimizda keng uchraydigan adabiy janrlardan . Alisher Navoiy

"Xazoiyin ul maoniy" kulliyotiga undan to'rtta namuna keltirgan . "G'aroyib us sig'ar" devonidan joy olgan tarji'bandi quyidagicha :

Tarji'band o'n band -ikki yuz satrdan iborat. Har bir band "Xarobot' aro kirdim oshuftahol , May istarg'a iligimda sing'on sapol" maqta'si bilan yakunlanadi. Ushbu bayt mazmun va ruhiga ko'ra barcha bandlarni bir-biriga bog'lab turadi. Tarji'bandning birinchi bandi g'azalga o'xshab qofiyalanadi. Ya'ni : birinchi bayt o'zaro "alast-mast" tarzida qofiyalangan, qolganlarida esa toq

misralar ochiq qolib, juft misralar o'zaro qofiyalanib keladi("alast-mast", "mayparast-hamnishast"). Qofiyalanish tizimi xuddi g'azaldagiday aa, ba, va, ga shaklida Tarji'bandning 10 bayt yoki 20 satrdan tarkib topgan. Tarji'bandga boy hayotiy kuzatishlarga tayangan teran falsafa asos qilib olingan. Bu kuzatishlar bir tomonda, yengil hazil-mutoibaga tayangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'z jiddiy xulosa hukmlari bilan hayolni egallab oladi. Masalan, dastlabki banda

Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast,

Aning nash'asidin kungil erdi mast.

Oshiqning qiziqarli bir sarguzashti hikoya qilingan: u bir necha mayxo'r do'stlari bilan mayxonaga kirib qolib, ko'zi piri mug'on (uztod, mayxona egasi) ga tushibdi. Birdan uning jozibasi oshiqni mahliyo etib, havaskor mayxo'r qarmoqqa ilingan baliqdek inon-ixtiyorini yo'qitib qo'yadi. Darveshlik libosini garovga berib, bir ko'zachada may oladi. Og'zini mum bilan mahkam berkitib, mastona qadam bosib kelmoqda edi, hamshishalari yugirishib kelishib, ko'zacha ichida nima borligini tekshirishga tushib ketadilar. Oshiq bechora oyoqlar ostida qolib, hamma

narsa shunday ag'dar-to'ntar bo'ladiki ... Oshiq buni quyadigacha bayon aylaydi:

... Mening boshima bas qotiq tushdi ish,
Chu toq o'lda bu dard ila toqatim.

("Mening shikaslanganim hech narsa emas, Ko'zacha chil-chil bo'lib, chorasiz qolgan edim"), - deb davom etadi. "May ichish istagida parishon bir holda mayxonaga kirdim. Qo'limda – singan safol idish" mazmunidagi maqta' – bayt bu voqeani o'zga xos arzda yakunlaydi.

Har bir bayt soqiyga murojaat bilan boshlanadi va oshiqning aftodahol ahvoli tasviri bilan tugallanadi. Sarguzasht

faqat birinchi bandda tasvirlangan, qolgan bandlarda asosiy o'rinni hasbi hol tasviri egallaydi. Shoir goh umrining foniyligidan g'alayonga kelib mayxonada g'avg'o ko'tarmoqchi bo'ladi, goh safol ichida mayda jahonning jilvalanishini ko'radi. Goh may xumoridan oshuftahol bo'lib, soqiydan "og'ziga may quyishini" iltijo qiladi. Lekin ushbu tarji'bandning har jihatdan eng yuksak va mukammal bandi so'ngisididir. U tarji'bandni yakunlaydi. Ilohiy ishq tasviri mazkur ~~Maz~~ bandda eng cho'qqiga ko'tarilgan.

Nechuk may bila bo'lmasun ulfatim,

Ki jon qasti aylar g'am u mehmatim.

Nazar aylab bu korgoh vazig'a,

Ki ortar tamoshasida hayratim,

Quyosh yo'qki, bir zarra mohiyatin

Topa olmadi sa'y ila fikratim.

Ne kelmak ayon bo'ldi, ne ketmagim,

Ne mabda yaqin bo'ldi, ne raj'atim.

Ne kasbi ulim etti hal mushkulim,

Ne tutti ilik taqvi-yu toatim.

Topay deb xabar ushbu maqsuddin,

Tutashti base qavm ila suhbatim.

...Mening boshima bas qotiq tushdi ish,

Chu toq o'lda bu dard ila toqatim.

Xarabot ila kirdim oshufta hol,

May istarg'a iligimda sing'on safol.

Bandda dunyoni anglamoq o'zini bilmoqqa tiyiqsiz ishtiyoqmand oshiqning iztirob va kechinmalari betakror yo'sinda o'z ifodasini topgan. Dunyoning sir-sinoat ekanligi, uning o'z qonuniyatlari borligi, uni anglash har kimning ham qo'lidan kelmasligi, haqiqat da'vosida yurganlarning o'zlari haqiqatdan nihoyatda yiroq ekanliklari borasidagi shoir kuzatishlari va taftishlari insonni o'yga soladi. Beixtiyor shoir xulosalariga qo'shilamiz va uning izmidan yura boshlaymiz. G'am-tashvishlari bo'g'ziga kelib qadalgan oshiq nega may bilan ulfat bulmasin?

Misralardagi dalil voqealarga e'tibor qilaylik: Bu dunyo tuzumiga nazar sol, tomosha qilganing sayin hayrating ortadi. Mening fikru g'ayratim quyosh u yoqda tursin, bir zarraning mohiyatini ham anglab yeta olmadi. Na kelishim ayon buldi, na ketishim. Na ularning sabab-oqibatini tushunib eta oldim. Bularni bilmoq qastida egallaganim ilm ham mushkulimni oson qila olmadi. Ushbu maqsadda odamlar bilan suhbatga zo'r berdim, natija bo'lmadi. Bu dardimga na hakim iloj qiloldi, na shayx daf eta oldi, shuncha harakatim zoye ketdi, samara bermadi. Boshimga

juda o'gir ish tushdi. Bu dard bilan toqatim toq bo'ldi. Shu bois "may ichish istagida parishon bir holda mayxonaga kirdim, Qo'limda – singan safol idish"

Shu tarzda shoir xarobot – mayxonaga kelish yo'lini atroflicha asoslaydi. Endi tasavvufiy ramzlarni ko'rib o'tamiz:

***May** – Alloh ishqi*

***Xarobot** – ahli darveshlar, soliklar, ya'ni yo'lovchilar*

***Soqiy** – Alloh yo'liga boshlovchi piri murshid, ustoz*

May ichiladigan jom – oshiq qalbi, lekin bu yerdagi may idishning o'zi siniq,

ya'ni oshiq qalbi ishqdan vayron bo'lgan. Bu faqat yor hajri iztiroblaridan emas, u olamni anglash va zabt etish imkoniyatining cheklangani bilan bog'lanadigan holdir.

Bandagi "ne-ne" so'zlari bilan boshlanadigan dalil va e'tirozlar junbushidan maydonga kelgan munozaraviy ohang asarga alohida bir ehtiros bag'ishlagan.

"Ulfatim-mehnatim-hayratim-fikratim-raj'atim-toatim-suhbatim-illatim-jur'atim-toqatim" qofiyalari va nihoyat epik dostonlarga xos bo'lgan mutaqorib bahri (fauvlun-fauvlun-

fauvlun-fauvl) ning tanlashi bur uh va ohangni ta'minlashda muhim o'rin tutgan.

Buyuk iste'dod egasi uchun katta-kichik janr yo'q. Uning sehrli qalimi tekkan har bir so'z alohida joziba kasb etadi, abadiyat mulkiga yalnadi va qalblarga iymon e'tiqod baxsh etadi.

LUG'AT

Oshuftahol *-parishonhol, hayajonli ~ aylamak, parishon qilmoq*

Kup (kub) – *1.xum 2.osmon*

Poymol - oyoqosti qilingan , ezilgan

Chog'ir (chag'ir) – *may, sharob*

Korgoh – *I. ishxona*

II. dunyo

Vazig'a – *tuzilishiga, qurilishiga, tartibiga*

Mabda – *ketish, kelib chiqish, asos*

Raj'at – *ortga qaytish, ketish*

Mug'on – *mayxona egasi, ustoz*

Ilik-qo'l